

UCHBO'LAKLI ITTIKANAK (BIDENS TRIPARTITA L.) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYA VA UNING XOM-ASHYO SIFATIDA QO'LLANILISHI.

Maxmudov Valijon

Farg'ona davlat universiteti, dotsent

Qurbonova Sarvinoz

Biologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Uchbo'lakli ittikanak (*Bidens tripartita* L.). Ushbu o'simlik Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Jizzax, Samarqand viloyatlarida uchraydi. Ko'pincha ariq bo'ylarida daryo, soy, hovuz, sholi poyalar orasida va boshqa namlik ko'p bo'lgan joylarda o'sadi. Qolaversa begona o't sifatida sug'oriladigan yerlar hamda tomorqalarda uchraydi.

MDH mamlakatlarida 7 ta turi borligi aniqlangan (S.S. Sahobiddinov., o'simliklar sistematikasi. 1966-yil). Uchbo'lakli ittikanak (*Bidens tripartita* L.) ning bo'yi 30-90 (120) sm gacha yetadi, gullarining rangi och sarg'ish ko'pincha naysimon o't o'simlik. Pistachasi kulrangroq, qo'ng'ir cho'ziq, 2-3 qiltiqli bo'lib qiltig'ining yonida pastga qaragan tikanakchasi bo'ladi.

Ittikanakni gullashidan oldin va gullash vaqtida ham poyasining barglari ko'p bo'lgan uchki qismini kesib olish bilan xom-ashyo tayyorlanadi. Yig'ish kech qolsa qorayib ketgan savatchalarini emas, faqatgina yon shoxchalari kesib olinadi. Xom-ashyo uyning tomlarida, shiyponlar ostida qog'oz yoki matolar ustiga 5-7 sm qilib yoyilgan holda quritiladi. Qurigan mahsulotning poyasi egilmasdan, balki sinishi kerak.

Ittikanak issiqlik va namlikni sevadigan o'simlik. Sovuq, yomg'irli bahor oylarida u sekin o'sadi va yaxshi rivojlanmaydi. Muntazam sug'oriladigan unumdor tuproqlarda yaxshi o'sib rivojlanadi.

Ittikanakni yalpi g'unchalagan paytda terib olish boshlanadi va yalpi gullashining boshlarida bu jarayon yakunlanadi.

Ittikanakning qurigan mahsuloti barglari ko'p uchki qismi va poyaning 15 sm.gacha bo'lgan bo'laklaridan iborat. Barglarining rangi yashil yoki qo'ng'ir-yashil, poyasi yashil yoki yashil-siyohrang bo'ladi. Hidi o'ziga xos, ta'mi achchiqroq, biroz yopishqoq bo'ladi.



Mahsulotda namlik 13% dan ko'p bo'lmasligi, umumiy kul miqdori 11%dan oshmasligi, qo'ng'ir va qorayib ketgan poya va barglari 3% dan ko'p bo'lmasligi, 15 sm uzun bo'lgan bargli uchki qismi 3% dan ko'p bo'lmasligi, organik aralashma 2% ko'p bo'lmasligi, mineral aralashma esa 1% dan oshmasligi kerak. Tayyor bo'lgan mahsulot quruq, havo yaxshi aylanadigan xonalarda 2 yil mobaynida saqlanishi mumkin.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda o'simlikning yosh uchki qismlari va barglari ishlatiladi.

Ittikanak siydik haydovchi va teri ajralishini kuchaytiruvchi xususiyatlarga ega, ovqat xazm bo'lishini yaxshilaydi, buzilgan moddalar almashinuvini me'yoriga keltiradi.

Shamollaganda ittikanak o'tidan tayyorlangan damlama siydik haydovchi, shamollashga qarshi, vitaminli, allergiyaga qarshi vosita sifatida ichiladi.

Ittikanak o'ti damlamasi - 10 g o'tdan olib, sirlangan idishga solinadi, 200 ml qaynagan issiq suv quyib, suv hammomida 15 daqiqa davomida qizdiriladi. So'ngra 45 daqiqa sovutiladi, dokadan o'tkaziladi, qolgan massa siqiladi. Olingan damlamaning ustiga dastlabki hajmi 200 ml bo'lgunicha suv solinadi. Bu damlamani kuniga 2-3 marta ovqatdan keyin yarim stakan yoki stakaning uchdan bir qismi hajmida ichiladi.

Vanna qilish uchun har 10 l suvga 1 stakan damlama olinadi. Damlamani salqin joyda 2 kundan oshirmay saqlash mumkin.

Ittikanak tarkibida kamida 10 ta flavonoid, kumarinlar, askorbin kislota, karotin, oshlovchi moddalar, achchiq modda, lakton, aminlar, ko'p miqdorda marganets, oz miqdorda efir moyi mavjud.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

8. Mustafaev S.M. Botanika (anatomya, morfologiya, sistematika) darslik.- Toshkent: O'zbekiston, 2002. -470b.